

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

QO‘CHQOROVA AYSHA OLTIBAYEVNA

**O‘SMIR QIZLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHINI
KITOBXONLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISH
(Sharq mutafakkirlari ijodi misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Qo'chqorova Aysha Oltibayevna

О'zmir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini kitobxonlik asosida
shakllantirish (Sharq mutafakkirlari ijodi misolida) 3

Кучкорова Айша Олтибаевна

Формирование духовно-нравственного мировоззрения девочек-подростков
на основе чтения (на примере произведений восточных мыслителей)..... 21

Quchqorova Aysha Oltibayevna

Forming the spiritual and moral worldview of teenage girls based on reading
(in the example of Eastern thinkers' works) 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

QO‘CHQOROVA AYSHA OLTIBAYEVNA

**O‘SMIR QIZLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHINI
KITOBXONLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISH
(Sharq mutafakkirlari ijodi misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2 PhD924 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.samdu.uz hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalining www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Maxmudova Muyassar
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Quronov Muhammadjon
pedagogika fanlari doktori, professor

Narziqulova Dilnoza Xashimjonovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «5» avgust soat 10. dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366)239-12-29, faks: (0366) 239-13-87, e-mail: kengash-pf@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366)239-12-29, faks: (0366) 239-13-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «24» iyul da tarqatildi.
(2023-yil «24» iyul dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).



A.A.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, dotsent

E.A.Abdumannatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
p.f.b.f.d (PhD)

N.Sh.Shodiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning jadal suratlar bilan rivojlanishi shaxs tarbiyasining milliy-ahloqiy tizimini takomillashtirishni muhim omillardan biriga aylantirmoqda. Jamiyat taraqqiyotining tendensiyalari tahliliga ko‘ra shaxs tafakkurining rivojlanishi o‘zi yashayotgan hudud sivilizatsiyasi, madaniyat darajasidan yuqori bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan globallashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot davrida jamiyat taraqqiyoti bilan pedagogika tarixini takomillashtirish masalasi ilg‘or davlatlar tajribasidagi yangicha yo‘nalishlar, xususan kitobxonlik sa‘natini egallashga yo‘naltirilgan metodika va maxsus mutolaa kurslari mazmuni tadqiq etish orqali yosh avlod ma‘naviy kamoloti hamda intellektual salohiyatini o‘stirish bilan bog‘liq dolzarb muammolar yuzaga kelmoqda.

Dunyoning yetakchi davlatlarida oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlarida pedagogika tarixi tendensiyalari asosida milliy-axloqiy tarbiya mazmunini modernizatsiya qilish, jamiyatning ma‘naviy va madaniy rivojlanishining omillarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari, o‘quvchilarda adabiy tahlil masalasini shakllantirish tizimi hadislar orqali o‘quvchilar axloqiy fazilatlarini kamol toptirish usullarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning bilan birgalikda o‘smir qizlarni kitobxonlikka jalb etish orqali sharqona ma‘naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish o‘smir qizlarda komillik sifatlarini tarkib topishi hamda global taffakur rivojiga doir texnologiyalarni tadqiq etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda sivilizatsiya yutuqlaridan, avlodlarimiz merosidan, sharqona tarbiya mezonlaridan keng ko‘lamda foydalana oladigan xalqaro aloqalar va madaniy - ma‘rifiy muloqotga faol ishtirok etadigan yoshlarni tarbiyalash mamalakatimizning jahon hamjamiyatiga mustahkam integratsiyalashuvi omilidir. Bu borada 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha strategiyasida “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat‘iy, hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash demokratik islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish¹ vaziflarining belgilanishi o‘smir yoshidagi yoshlarni mutolaa madaniyatini shakllantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘PQ-406 son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi ПФ 4947 – son farmoniga sharh. //Xalq so‘zi. –Toshkent, 2017. - № 28 (6722). – B.2.

dasturi to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 7-iyundagi "2022-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 310-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'smir yoshidagi qizlarni sharqona axloqiy-ma'naviy ruhda tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muammosi turli yillarda ijod maktablari dasturida badiiy asar mazmunini o'zlashtirish, badiiy estetik tarbiya, tahlil va yozma, og'zaki nutq o'stirish masalalari doirasida o'rganilgan.

Mutolaa muammosining ayrim jihatlarini 1970-1980-yillarda pedagog olimlardan S.Dimemo, A.Zunnunov, M.Mirqosimovlar o'quvchilarda adabiy tahlil masalasini shakllantirish tizimi, Q.Yo'ldoshev adabiyot o'qitishda yangilangan pedagogik tafakkur, S.Matjonov adabiyotdan mustaqil ishlarning asosi, Q.Xusanboyeva mustaqil fikrlashga o'rgatish, R.Niyozmetova ta'lim rus tilida olib boriladigan maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'zbek tili dars mashg'ulotlarida adabiy materiallarni o'rganish, A.Bolibekov hadislar orqali o'quvchilar axloqiy fazilatlarini kamol toptirish usullari, majmui tarzida tadqiq qildilar. Milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida mutolaa madaniyatidan maqsadli foydalanishni optimallashtirishning nazariy asoslari jamiyat taraqqiyoti va komil inson tarbiyasi, oila kitobxonligi, kutubxonalardan maqsadli faollashtirishni belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlarni yaratish muammolarini A.Umarov, S.Chiniyeva, D.G'aniyeva, Ye.Yo'ldoshev, S.Hayitova, A.Abdulhayevlarning izlanishlarida alohida tahlilga tortilgani kuzatiladi.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari rus olimlaridan O.Bogdanova, A.Leontyev, G.Pransova, N.Smentanikova, R.Dekushevalar tadqiqotlarida, asosan, sinfdan tashqari kitobxonlik muammolari madaniyatiga jalb etishning pedagogik-nazariy asoslari talqin etiladi.

Mustaqil kitobxonlik madaniyatini faollashtirish usullari yoshlarga mo'ljallangan asar va kitobxon o'rtasidagi aloqadorlik masalalari xorijlik K.Klark, A.Lionson, Ye.Xirich, (AQSH) K.Xolges, M.Bars, P.Benton (Angliya) kabi olimlarning pedagogik o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topgan. Mavjud ilmiy-metodik manbalar umumiy-o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishga bag'ishlangan. Ammo o'smir qizlarni sharqona tarbiyalash muammosi to'liq tadqiq etilmaganligi, ma'naviy-axloqiy ruhda

tarbiyalashda kitobxonlikning o'rnini muammosi to'liq tadqiq etilmaganligi bois maxsus ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni bugungi kun taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya SamDChTI Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi kafedrasining “Xorijiy tillarni o'qitishning innovatsion metodlari va pedagogikaning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kitobxonlik asosida o'smir qizlarning sharqona ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'smir qizlarni kitobxonlik asosida milliy-sharqona ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda mustaqil mutolaa madaniyatining pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

o'smir qizlarning mustaqil mutolaasiga rahbarlik qilishda sharqona an'anaviy mezonlarni etnopedagogik yondashuv asosida shakllantirish;

sharqona ma'naviy-axloqiy tarbiyada milliy urf-odatlar va kitobxonlikning o'smir qizlar faoliyatida tutgan o'rnining mazmunini ishlab chiqish;

o'smir qizlar uchun samarali bo'lgan yondashuv va faoliyat turlarini qo'llash yo'llarini takomillashtirish;

Tadqiqotning obyekti kitobxonlik asosida o'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish jarayoni belgilanib, Jizzax shahridagi Hamid Olimjon va Zulfuya nomidagi ijod maktabi, Guliston shahridagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi, hamda Samarqand So'zangaron tibbiyot kolleji va Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumidan 402 nafar respondent jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini o'smir qizlarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish jarayonining mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid adabiyotlarni siyosiy-tahliliy o'rganish, sharq allomalari va milliy urf-odatlar va qadriyatlarga oid madaniyatlarni tahlil qilish (kuzatish, suhbat, anketa, so'rov) va pedagogik tajriba-sinov, monitoring, tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o'smir qizlarda mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishning sharqona ma'naviy-axloqiy tarbiyaning omillarini aniqlash va ularning ruhiy holatini bilish jarayonlari rivojiga bog'liq imkoniyatlar asosida aniqlashtirilgan;

o'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning etnopedagogik xususiyatlari sharqona milliy tajribalar va an'analarning identiv mezonlarini belgilovchi badiiy asarlarni bosh va yordamchi subektlarning tarbiyaviy funksiyalariga korrelyativligini belgilash asosida aniqlashtirilgan;

o'smir qizlarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi shaxsda kitobxonlik madaniyati komponentlariga muvofiq ta'lim-tarbiyaga milliy

yondashuv, evristik ta'lim metodlari, maxsus suhbat, muhokama, munozara o'tkazish usullarining yosh xususiyatiga mosligini belgilash, faoliyat turlarini qo'llash orqali takomillashtirilgan;

kitobxonlik asosida o'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish bosqichlari o'smir qizlar ruhiyatidagi ziddiyatlar tabiatiga asoslanib, sharq mutafakkirlarning asarlari va o'zbek adabiyoti namunalarida o'smir qizlarning milliy obrazlarini tahliliy ifodalash hamda refleksivlik mezonlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'smir qizlarni sharqona an'anaviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda milliy urf-odatlar va an'analar madaniyatini shakllantirish bo'yicha "Qizlar tarbiyasida milliy qadriyatlarining o'rni", "Kitob ma'naviyat ko'zgidir", "Maktabda badiiy-estetik tafakkur tarbiyasi" hamda "O'smir qizlarni maxsus suhbatlar vositasida mutolaaga qiziqtirish" nomli metodik qo'llanmalar yaratilgan;

o'smir qizlarni sharqona ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda kitobxonlikning o'rni va ahamiyati haqida mutolaa dasturi amaliyotga joriy etilgan;

o'smir qizlarni sharqona axloqiy-ma'naviy ruhda tarbiyalashda didaktik, pedagogik ta'minoti takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Pedagogikaning nazariy asoslariga tayangan hamda ilmiy xulosalar, milliy va xorijdagi sohaviy nashrlar, qolaversa dissertatsiyada qo'yilgan vazifalarni hal qilinishini ta'minlash, tajribada sinalganligi, olingan natijalarning vakolatli tizimlar bilan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining o'smir qizlar tarbiyasidagi ilmiy ahamiyati kitobxonlik muammosining tadqiq etilishi axloqiy, ma'naviy, milliy tarbiyaning muayyan yo'nalishlariga doir metodik nazariyalarni tahlil qilish, mustaqil mutolaaga oid dastur, majmualar tuzish, shuningdek sharqona tarbiyaning samaradorligiga xizmat qiluvchi yetakchi g'oyalar belgilangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish amaliyotida muhim manba bo'lishi, kitobxonlikka oid qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, mahalla xotin-qizlar qo'mitasi jamoatchilik kengashlari bilan hamkorlikda o'smir qizlarni ma'naviy-axloqiy, milliy ruhda tarbiyalashga doir davra suhbatlari, ota-onalarning maslahat kengashlari hamkorligidagi uchrashuvlar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini kitobxonlik asosida sharqona ruhda tarbiyalash bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

o'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o'smir qizlarda mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishning sharqona ma'naviy-axloqiy tarbiyaning va omillarini aniqlash va ularning ruhiy holatini bilish jarayonlari rivojiga bog'liq imkoniyatlar asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalar JHBL-22 raqamli "Oilada jinoyatlar va zo'ravonliklar, oiladagi kriminogen muhit kelib chiqish sabablarini tadqiqi etish"

nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 10 fevraldagi 02-07-398/04-son dalolatnomasi). Natijada o'smir qizlarni kitobxonlik asosida milliy sharqona ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirishda mustaqil mutolaa madaniyatining pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish imkoni kengaytirilgan;

o'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning etnopedagogik xususiyatlari sharqona milliy tajribalar va an'analarning identiv mezonlarini belgilovchi badiiy asarlarni bosh va yordamchi subektlarning tarbiyaviy funksiyalariga korrelyativligini belgilash asosida aniqlashtirishga oid takliflardan JHBL-22 raqamli "Oilada jinoyatlar va zo'ravonliklar, oiladagi kriminogen muhit kelib chiqish sabablarini tadqiqi etish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 10-fevraldagi 02-07-398/04-son dalolatnomasi). Natijada o'smir qizlarning mustaqil mutolaasiga rahbarlik qilishda sharqona an'anaviy mezonlarni bilishga sharoit yaratilgan;

o'smir qizlarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi shaxsda kitobxonlik madaniyati komponentlariga muvofiq ta'lim-tarbiyaga milliy yondashuv, evristik ta'lim metodlari, maxsus suhbat, muhokama, munozara o'tkazish usullarining yosh xususiyatiga mosligini belgilash, faoliyat turlarini qo'llashga doir tavsiyalarni ilmiy asoslash orqali takomillashtirishga oid takliflar JHBL-22 raqamli "Oilada jinoyatlar va zo'ravonliklar, oiladagi kriminogen muhit kelib chiqish sabablarini tadqiqi etish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 10-fevraldagi 02-07-398/04-son dalolatnomasi). Natijada sharqona ma'naviy-axloqiy tarbiyada milliy urf-odatlar va kitobxonlikning o'smir qizlar faoliyatida tutgan o'rnini ko'rsatishga sharoit yaratilgan;

kitobxonlik asosida o'smir qizlarning ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish bosqichlari o'smir qizlar ruhiyatidagi ziddiyatlar tabiatiga asoslanib, sharq mutafakkirlarning asarlari va o'zbek adabiyoti namunalarida o'smir qizlarning milliy obrazlarini tahliliy ifodalash hamda refleksivlik mezonlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar JHBL-22 raqamli "Oilada jinoyatlar va zo'ravonliklar, oiladagi kriminogen muhit kelib chiqish sabablarini tadqiqi etish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 10-fevraldagi 02-07-398/04-son dalolatnomasi). Natijada o'smir qizlar uchun samarali bo'lgan yondashuv va faoliyat turlarini qo'llash yo'llarini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi: Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta maqola, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya

etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, 5 ta Respublika, 5 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'lib, 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, metodologik asosi, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan hamda himoyaga olib chiqilayotgan ilmiy g'oyalar taqdim etilgan.

Tadqiqotning **“O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini kitobxonlik asosida shakllantirishning nazariy asoslari”**, deb nomlangan birinchi bobida ma'naviy-axloqiy dunyoqarash tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, o'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning etnopedagogik asoslari hamda o'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini kitobxonlik asosida shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Ma'lumki, o'zbek xalqining bir necha ming yillar davomida yaratgan, avaylab-asrab kelayotgan axloq-odob durdonalarini, boy qadimiy merosini, milliy qadriyatlarimiz yutuqlarini o'rganish va unga amal qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Chunki, faxrimiz bo'lgan Sharq allomalarimiz Kaykovus, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy kabi jahonga mashhur ma'rifatparvar shoir va yozuvchilarning ma'naviy-axloqiy qarashlari, ular naql qilgan rivoyatlari yosh avlodlarimiz uchun axloq-odob sabog'idir.

Sharqda pedagog olimlar asrlar davomida bola tarbiyasiga, ma'naviy-axloqiy qarashlariga katta e'tibor berganlar. Bu tarbiya masalalari Sharq olimlari tomonidan yaratilgan asarlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, mashhur hind masali “Kalila va Dimna”, Nizomul Mulkning “Sayohatnoma”, Nosir Hisravning “Saodatnoma”, “Ro'shnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Vaqfiya”, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi asarlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, o'zbek adabiyoti tarixida nom qozongan shoirlar va yozuvchilardan Abulqosim Firdavsiy, Tusiy, Rudakiy, Nosir Hisrav, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Munis Xorazmiy va boshqalar o'zlarining badiiy asarlarida ajoyib ta'limiy, axloqiy, tarbiyaviy fikrlarini, tushunchalarini ifoda etganlar.

Ma'lumki, insoniyat o'z xatti-harakatidagi, xulqidagi yo'nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlashib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida xulq-axloq qoidasining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim bilan tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liq bir butun jarayon hisoblanadi. Sharq xalqlarining asrlar mobaynida orttirgan tajribalaridan kelib chiqib, balog'at

yoshidagi qiz bolalarning, axloqiy, ma'rifiy, ma'naviy tarbiyasini ramziy ma'noda uch toifaga bo'lish mumkin:

Birinchisi, bu toifaga oq bilan qorani bilmaydigan, farqiga bormaydigan qiz bolalar kiradi. Ular tabiatida yomonlik, axloqsizlik, shakllanmagan. Bunday qizlarga pand-nasihat tez ta'sir qiladi. Shu bois ularni to'g'ri yo'lga solish, tushuntirish oson yo'l bilan amalga oshiriladi.

Ikkinchi toifa qizlar, atrofidagi kattalar, do'stlarining ta'siri natijasida oq qorani ajratadigan bo'ladilar. Ular fikridagi qisman hosil bo'lgan ikkilanishlar tufayli, yaxshilik, ezgulik sari qadam qo'yishlari bir oz qiyin kechadi. Ular ayrim hollarda o'zlaridagi kamchiliklarning xato ekanligini tushunadilar. Bunday qizlarni tarbiyalash birinchisiga nisbatan qiyinroq kechadi. Ammo ularga doimiy ravishda kattalar har tomondan nasihatlar va tanbehlar berib borilsa, e'tibordan chetda qoldirilmasa yaxshi xulqli qilib tarbiyalash mumkin.

Uchinchi toifaga mansub o'smir qizlar tarbiyasi bir oz murakkab bo'lib, ular voyaga yetayotgan oila muhiti bilan bog'liqdir. Chunki bunday oilada, kattalar tomonidan muttasil nohaq ishlarni haq deb bilib kelish odat tusiga kirgan va shunga o'sib kelayotgan qizlarni ishontirgan. Yoki, yomonlik qilsalar ham o'zlaricha yaxshilik deb hisoblaydigan oilalarda oddiy hodisa deya qaraganlar. Bu hol o'smir qizlar ruhiyatiga vaqt o'tishi bilan singib boradi. Bunday qizlarni axloqli qilib tarbiyalash ancha mushkuldir. Shuning uchun ham xalqimiz azaldan yaxshi va yomon xulqlarning hosil bo'lish sabablarini oilaga bog'laydilar. Ularning aytishlaricha, axloqsiz, odobsiz, onadan tug'ilgan va razil, vijdonsiz ota qo'lida tarbiyalangan qizlardan yaxshilik kutish qiyin deb hisoblaganlar.

Ma'lumki, insonning asl qiyofasi uning shirinso'zligi, mehribonligi, olijanobligi singari sifatlari bilan namoyon bo'ladi. Bu ijobiy xislatlari bevosita go'zal so'zlarni ishlatishi orqali, go'zal nutqi vositasida amalga oshiriladi. Kitob olamida esa bu ijobiy so'z jamlanmasi mujassamlangan bo'lib, ulardan foydalanish uchun kitob mutolaasi muhim manbadir. Bu xislat esa ma'naviyat bilan bog'liq bo'lib har qanday insonning u ruhiy, aqliy olamini ifodalovchi tushunchadir. Shunday ekan, har bir shaxsning aqliy zakovatini yorituvchi ilmga intilish orqali, jamiyatda asosiy o'rin tutgan faoliyat bilan amalga oshiriladi.

Bir so'z bilan aytganda, kitob insonshunoslikka yo'l ko'rsatadigan, ijobiy ma'noda hayotda ko'zlagan maqsadini belgilab beradigan ma'naviy-ma'rifiy xazinadir.

“Ma'naviyat atamasining ko'lami nihoyatda keng bo'lib, bevosita inson uchun zarur bo'lgan falsafiy dunyoqarash, huquqiy ilmga ega bo'lish, ilmiy, badiiy tafakkur dunyosi haqida tasavvur hamda axloqiy, diniy ilmlarning bilimdoni bo'lish bilan izohlanadi.”²

Darhaqiqat, kitobxonlikka jalb etish ham xalq pedagogikasining uzviy qismini tashkil etadi. Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og'zaki ijodi, qadrshunoslik, udumshunoslik va marosimshunoslikning yetakchi yo'nalishlarini, diniy-axloqiy ta'limotini qamrab olishi bilan xarakterlidir. Demak, o'zbek xalq pedagogikasi

² Oila ensklopediyasi. O'zbekiston milliy ensklopediyasi nashriyoti O'zbekiston milliy ensklopediyasi. Toshkent 2019 y. 78-bet.

yoshlar ongiga ma'naviy-axloqiy tarbiyani singdirish, shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashlarini kitobxonlik asosida shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlari” deb nomlanib, unda o‘smir qizlarda kitobxonlikni shakllantirishda Sharq allomalari qarashlarining o‘rni, o‘smir qizlarning sharqona ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda urf-odatlar va xalq og‘zaki ijodining ahamiyati hamda o‘smir qizlarni kitobxonlik asosida sharqona ma’naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishda Sharq va G‘arb pedagogikasining qiyosiy tahlili ochib berildi.

O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish masalasi murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, ko‘p qirrali mazmunga ega bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. Uni amalga oshirish uchun ma’lum pedagogik xususiyatlarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Bu hol bevosita milliy qadriyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, oiladagi diniy, ma’naviy, ijtimoiy, milliy qadriyatlar umumlashganda katta tarbiyaviy muhitni tashkil etadi.

Avvalo, o‘smir qizlar tarbiyasi bilan bog‘liq islomiy qadriyatlarning asosini halollik, poklik, gunoh ishlardan tiyila bilish, atrofdagi yaqinlarining qadr-qimmatini bilish, hayot sinovlariga bardosh berish, eng muhim shukronalik tuyg‘usini shakllantirish kabi insoniy fazilatlar tashkil etadi.

Ma’lumki, o‘smir qizlar o‘z hayot yo‘lini belgilash ostonasida turganligini to‘g‘ri yoki egri yo‘lni tanlashi shaxsan o‘zlariga bog‘liq ekanligini uqtirish, ota-ona, mahalla ko‘y, yaqinlarining zimmasidagi ma’suliyat hisoblanadi.

O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy dunyoqarashlarini shakllantirish tizimini quyidagicha izohlash mumkin. Ya’ni, bosh tizim va yordamchi tizim asosida:

1-jadval

O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish tizimi

Bosh tizim-bu oiladan iborat	
Bosh tizimga mansub shaxslar	<ul style="list-style-type: none"> • ota-ona • aka-uka, opa-singil • bobo-buvi • qarindoshlar (amma, xola, tog‘a, amakilar) • yaqin do‘stlar
Oila a’zolarining milliy qadriyatlari	
<ul style="list-style-type: none"> -oiladagi avlodlar ana’nalari -oiladagi udumga kirgan va qabul qilingan urf-odatlar -oiladagi o‘zaro nutqiy, tarbiyaviy, madaniy munosabatlar 	
Yordamchi tizimga mansub mas’ullar	
<ul style="list-style-type: none"> -o‘smir qizlar ta’lim oladigan o‘quv yurti ma’muriyati rahbari (maktab, litsey, kollej) -o‘qituvchi, tarbiyachi, pedagog, psixolog, guruh rahbarlari -ta’lim maskanlarida tashkil etilgan turli to‘garaklar, kutubxona, xotin-qizlar kengashi, yoshlar bilan ishlash tashkiloti -sinfdan va maktabdan tashqari mustaqil tashkil etiladigan tadbir mutassadilari 	

O‘smir qizlar tarbiyasi tabiiyki xalqimizning qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ular o‘z millati, elati haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lishlari uchun, aynan qadriyatlar qalamga olingan asarlarni o‘qishlari, ularda avlodlarimizning azaliy bayramlariga va an‘analariga, umuminsoniy qadriyatlariga qiziqish va muhabbat uyg‘onadi. Shuningdek, kitobxonlikka jalb qilish orqali Sharq mutaffakurlarining tarbiyaviy-axloqiy qarashlarini o‘ziga jamlagan asarlarni tanlash va ularni o‘qishga tavsiya etish muhim ahamiyatga egadir.

Tanlangan asarlarning mavzu doirasi va ularni o‘z asarlarida aks ettirgan shoir va yozuvchilarning asarlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

2-jadval

O‘smir qizlarga o‘qish uchun tavsiya etiladigan asarlar

Ma‘naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantiruvchi asarlar tasnifi	O‘zbek adabiyoti namunalarida
1. Sharq allomalari merosi va xalq pedagogikasi g‘oyalarining o‘smir qizlar ma‘naviy-madaniyati va taffakkurini shakllantiruvchi asarlar	Alisher Navoiy va Bobur asarlari X.Sultanov “Boburning tushlari”, Ahmad Yassaviy hikmatlari, P.Shermuhammedov “Yaxshilar bahori” yoxud Mahmud Zamaxshariy dahosi, Mirkarim Osimning “To‘maris”, Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy”, Hadislar
2. O‘zbek xalqining madaniy an‘analarini aks ettiruvchi asarlar	Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Oybekning “Qutlug‘ qon”, A.Qahhorning hikoyalari, T.Malikning pandnoma asarlari
3. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘smir qizlar axloqiga doir dostonlar, hikoya va rivoyatlar	“Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Aziz momo” asotir “Alibobo va qirq qaroqchi”, O‘zbek xalq maqollari, afsona va rivoyatlari, ertaklari.
4. Xalq pedagogikasi va milliy marosimlar aks etgan asarlar	Asqad Muxtorning “El yurt kerak ekan odamga”, Nazar Eshonqulning “Yalpiz hidi”, T.Malikning “Beklar va bekajonlar”, O‘tkir Xoshimovning “Dunyoning ishlari”, Abdulla Qahhor hikoyatlari va qissalari
5. Ajdodlarimiz merosida o‘smir qizlar tarbiyasiga oid asarlar	Kaykovusning “Qobusnoma”, “Ajdodlar o‘giti”, Alisher Navoiyning, Farobiy, Beruniy, Ibn Sinoning ta‘lim-tarbiyaga oid asarlari

Insoniyat tarixida har bir zamonning yoshlarini ilmiy qilish, ma‘naviy yuksaltirish masalasi asriy qadriyat ekanligi ma‘lum jarayondir. Bu qadriyat har bir hududning turmush tarzida, madaniyatida, ilmiy-ma‘rifiy tafakkurida o‘z aksini topadi.

Kitob-ma‘lumot, g‘oyalar, tasvirlar va bilimlarni saqlash va tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish, bilim, san‘at, fan, ijtimoiy adabiyotni targ‘ib qilish va tarbiyalash vositasidir. Xalqaro statistikada, YUNESKO tavsiyasiga binoan 48 sahifadan kam bo‘lmagan davriy nashrni kitob sifatida chaqirish qabul qilinadi.

Kitob insoniyatning qadimgi tarixidagi eng katta mo‘jizasi va ixtirosi bo‘lib, u insonning aqliy yetukligi va ma‘naviy yetuklik darajasiga ko‘tarilishiga yordam

beradi va har birimiz kitobdagi bilim manbalari orqali ma'naviy ozuqa olamiz. Shuning uchun kitob bilim, ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat manbaidir. Insonni ulug'laydigan, unda ma'naviyat va ma'rifat poydevorini shakllantiradigan, uni komil inson qilib tarbiyalaydigan kuch bu dunyoni bilish manbai bo'lgan kitobdir. Biz kitoblar orqali o'zimiz, dunyo, koinot va insoniy munosabatlar haqida bilib olamiz. O'qishni sharhlar ekan, buyuk allomalar adabiyoti bilan tanishgan odamda yaxshilik va yaxshilik doim hamroh bo'ladi, deganlar. Kitob o'tmish, hozirgi va kelajak o'rtasidagi noyob ko'prikdir. Shu sababli, kitob ma'naviy meros, bitmas-tuganmas xazina deb nomlanishi bejiz emas va faqat haqiqiy kitobni qadrlaydiganlar uning qadrini anglaydilar.

“Odamlar o'qishni to'xtatganda, o'ylashni to'xtatadilar”, deb yozgan D.Didro. Va shubhasiz, u haq edi. Darhaqiqat, o'qish tufayli shaxsning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xayoliy fikrlash shakllanadi. Kitob madaniyatni o'rgatadi, chuqur tafakkurni rivojlantirib, diqqat va xotirani mustahkamlaydi. Albatta, bugungi adabiyotning mashhurligini o'tgan asrdagi kitobxonlik darajasi bilan taqqoslab bo'lmaydi, ammo buning mantiqiy izohi bor.

Zamonaviy texnikalar bizga keng imkoniyatlarni taklif etadi, ammo hayotingizni kitobsiz tasavvur qila olasizmi? Natijada, ma'lumotni faqat o'qituvchining tushuntirishlariga asoslanib olish juda qiyin va ba'zan imkonsizdir. Shuning uchun kitobning inson hayotidagi o'рни juda muhim va noyob bo'lib, uning yordamida o'z sohasining malakali mutaxassisiga aylanadi.

Yozuvchi va faylasuf J.Svift: “Kitoblar aql farzandlaridir”, - desa, pedagog va yozuvchi Ya.Komenskiy: “Kitoblar donishmandlikni yoyish qurolidir”, – deydi. Shu tariqa buyuk allomalar, donishmandlar, olimlar kitobning mo'jizaga, nurga, tafakkur quvvati va ustuniga, mangulik va ma'naviyat timsoliga, bilim manbaiga, sodiq do'stga, davr ko'zgasiga o'xshatganlar. Eng muhimi, kitob jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashda yengilmas kuchdir. O'smir qizlar orasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish ko'pgina zararli illatlarning oldini olishga sabab bo'ladi. I.S.Zbarskiy shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning uch muhim komponenti bor ekanligini ta'kidlab o'tgan.

3-jadval

Shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish komponentlari


1.	kognitiv komponent	O'smir qizlar ma'naviy ongi, badiiy eruditsiya, dunyoqarashining shakllanishi bilan tavsiflanadi;
2.	emotsional komponent	O'smir qizlarda estetik hislar, emosional qadriyatlar tizimi, oliy hislarning shakllanishi bilan belgilanadi;
3.	xulq-atvor komponenti	O'smir qizlarning ijtimoiy xulq me'yorlariga rioya etish ko'nikmasi, axloqiy dunyoqarashi tarbiyalanadi.

Tadqiqotning “**O'smir qizlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini kitobxonlik asosida shakllantirishning samaradorligi**”ga bag'ishlangan uchinchi bobida o'smir qizlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish

yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni va amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalari bayon qilinadi.

O‘smir qizlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yuksak ishonch ruhida tarbiyalashda va sifatining xalqaro talablarga muvofiqligini oshirish, huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan, yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli yoshlarni tarbiyalash, fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga tayanish, fan bo‘yicha egallangan malakalar darajasini nazorat qilish va baholashda yoshlarni mustaqil mutolaa madaniyati hamda badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish masalasi bugungi kun oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartida belgilangan “mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalariga asoslangan, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash”, balog‘at yoshidagi bolalarning intellektual salohiyati, axloqiy-ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutuvchi kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq samarador usullarni qo‘llashni taqozo etadi.

O‘smir qizlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar quyidagicha belgilandi:



1-rasm. O‘smir qizlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar

O‘smir qizlarning mustaqil mutolaasini, madaniyatini shakllantirish darajasini aniqlash natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, kitobxonlikni tizimli yo‘lga qo‘yishda ular uchun muhim bo‘lgan asarlarni o‘qishni tavsiya etish, asar matniga diqqat qilish, asardagi ilgari surilgan g‘oyalarni anglash kabi shakl va vositalar o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan.

Bu natijalarga oid diagnostika ma’lumotlar quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

**O'smir qizlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda
kitobxonlikning tutgan o'rni darajasini aniqlashning diagnostik dasturi**

№	Kitobxonlik vositasida ma'naviy-axloqiy tushunchalarni anglash ko'rsatgichlari	Ma'naviy-axloqiy dunyoqarashning namoyon bo'lish darajalari			
		Yaqqol namoyon bo'lish darajasi	O'rta namoyon bo'lish darajasi	Sust namoyon bo'lish darajasi	Namoyon bo'lmaslik darajasi
1	Ma'naviy axloq tushunchasi va uning mazmun mohiyati xususida ma'lumotga egalilik	Ma'naviy axloq tushunchasi haqida tasavvurga ega bo'lish	Umumiy tarzda tasavvurga ega bo'lish	Chalkash, nazariy ma'lumotlar yig'indisiga ega	Ma'naviy axloq tushunchasi haqida hech qanday ma'lumotga ega emas.
2	Milliy-qadriyatlar, urf-odatlar haqidagi ma'lumotlarni bilish darajasi	Milliy-qadriyatlar, urf-odatlar haqida to'liq ma'lumotga ega	Ayrim qadriyatlar, urf-odatlarni tasavvur qiladi	Qisman tasavvurga ega, bo'lib, alohida-alohida izohlay olmaydi	Yevropalashgan, zamonaviy qadriyat va urf-odatlardan milliylikka xos bo'lgan jihatlarini ajrata olmaydi.
3	Sharq allomalarining asarlaridan xabardorlik darajasi	Kitobxon o'smir qizlarning xabardorlik darajasi yuqori	Ayrim allomalarning asarlarini o'qigan, yoshlar xabardor	Maktab dasturida tilga olingan allomalarning faqat nomlarini ayta oladi	Deyarli xabardor emas.
4	Yevropa va sharqona ma'naviy-axloqiy tushunchalarni farqlash darajasi	Ushbu tushunchalarni yaxshi farqlay oladi.	Ayrim yoshlar tushunchaga ega, ammo Yevropa madaniyatiga moyillik ko'zga tashlanadi.	Yevropa madaniyatiga taqlid qilishni ma'qul ko'radi.	O'smir qizlar uchun umuman farqi yo'q.

